



BOTIR UMIDJONOVNING SAN'ATDA TUTGAN O'RNI

Xayitova Durdona Shuhrat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Musiqqa ta'limi va san'at yo'nalishi

1-bosqich magistranti

hdurdona2004@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mohir xor dirijyor va kompozitor Botir Umidjonovning hayoti, ijodiy merosi, xor uchun qayta ishlagan asarlari, ta'lim faoliyati, mehnat faoliyati, san'atda tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z borgan. Botir Umidjonovning o'zbek musiqqa tarixidagi o'rni beqiyosdir.*

Kalit so'zlar: *Botir Umidjonov, o'zbek san'ati, estrada musiqasi, mumtoz musiqqa, xalq musiqasi, zamonaviy musiqqa, xor uchun asarlar.*

Abstract: *This article discusses the life, creative legacy, works adapted for choir, educational activities, work, and the role and significance of the brilliant choral conductor and composer Botir Umidjonov. Botir Umidjonov's role in the history of Uzbek music is incomparable*

Keywords: *Botir Umidjonov, Uzbek art, pop music, classical music, folk music, contemporary music, works for choir.*

Tovushlar va ohanglar orqali inson qalbini, hissiyotini ifoda etadigan san'at bu musiqqa hisoblanadi. Musiqqa inson hayotining ajralmas bir qismidir. Musiqqa insonlarni quvontiradi va kayfiyatini ko'taradi. Musiqqaning turlari ham mavjud. Ular estrada musiqasi, mumtoz (klassik) musiqqa, xalq musiqasi va zamonaviy musiqqa. Musiqqa qadim zamonlarda ham, hozirgi kunda ham jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi.

O'zbek san'atida milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashimiz va ularni zamonaviy ruhda davom ettirishimiz juda muhim ahamiyatga egadir. Shu borada o'zining ijodi, ijrochilik mahorati va sahnadagi madaniyati bilan e'tibor qozongan san'atkorlardan biri- Botir Umidjonovdir. Botir Umidjonov- o'zbek san'atida o'z



faoliyatini yuritgan ijodkor sifatida tanilgan. Asosan musiqa va ijrochilik yo'nalishida faol bo'lgan san'atkorlardan biridir. Botir Umidjonovning faoliyati milliy musiqa an'alarini targ'ib qilish, yosh ijodkorlarga namuna bo'lish va sahna madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Ijodida badiiy ifoda, milliy ruh va an'anaviy ohanglar katta ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiy faoliyati asosan milliy musiqa ijrochiligi va sahna madaniyatiga bog'liq. San'atkor sahnada o'zini qanday tutishi va ijro paytidagi madaniyati va tomoshabinlar bilan uning o'zaro muloqoti orqali barchadan ajralib turgan. Bu jihatlar san'at yo'lining qanchalar nozik ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham san'at yo'lidagi insonlarning qalbi pok bo'ladi. Botir Umidjonov o'zbek musiqa san'atida milliylikni saqlagan holda ijod qilgan san'atkorlardandir. Kompozitorning faoliyati:

Milliy qo'shiqchilik maktabining o'sishiga xizmat qilgan;

Yosh avlodga san'atga bo'lgan qiziqishini uyg'otgan;

Madaniy merosni asrab-avaylashga va uni targ'ib qilishga alohida hissa qo'shgan.

O'zbek musiqa san'atida o'ziga xos uslub yaratgan ijodkorlardan biri bo'lgan Botir Umidjonov yosh avlod uchun ijrolari va chiqishlari bilan namuna bo'lib xizmat qiladi. Albatta barchamiz bilamizki har bir kompozitorning ham o'ziga xos jihatlari, ijodiy faoliyati bo'ladi. Shunga ko'ra xormeyster Botir Umidjonovning ham ijrolarida o'zbek xalqining urf-odati, madaniyati va ruhiyati yaqqol sezilib turadi. Botir Umidjonovning ijrochilik mahorati uning san'atkor sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Qo'shiqni ijro etayotgan vaqtida u asarning mazmunini va ruhini albatta tinglovchiga yetkazishga harakat qilgan. Hattoki xalq qo'shiqlari va an'anaviy qo'shiqlarni ham milliy ruhni saqlagan holda ijro etgan.

Botir Umidjonovning ijodidan Xorazm xalq qo'shiqlari ham o'zbek xor musiqasining xazinasidan o'rin olgan. Botir Umidjonovning ijodi O'zbekistonda qo'shiq janrining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston xalq artisti, mohir xor dirijyor va kompozitor Botir Umidjonov Hoshimovich Dushanbe shahrida 1993-yil 31-yanvarda tavallud topgan. Mohir dirijyorning oilasi 1939-yili Toshkentga ko'chib kelgan. 1941-1948-yillarda Botir



Umidjonov mehribonlik uyida tarbiyalanadi, xor va drama to'garaklariga qatnasha boshlaydi. Hamza nomidagi musiqa bilim yurtining xor dirijyorligi bo'limiga 1952-yilda o'qishga kiradi. O'zbek Davlat Filarmoniyasining akapella xoriga ishga joylashadi. 1955-1960-yillar oralig'ida Toshkent Davlat Konservatoriyasining xor dirijyorligi yo'nalishida Ekaterina Akimovna Gudkovadan ta'lim oladi. Keyinchalik 1960-yilga kelib respublika radiosi huzurida xor jamoasini tuzadi. Botir Umidjonov 1982-yilda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga qabul qilingan. Kompozitorning dirijyorlik faoliyati respublikamizning ko'p ovozli xor san'atini rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. 1993-yilga qadar bu xor jamoasining badiiy rahbari va bosh dirijyori sifatida ishlaydi. Botir Umidjonov o'zbek va boshqa xalqlarning qo'shiqlarini, lapar va ashularini ko'p ovozli xor uchun moslashtirib, boshqa kompozitorlarning ham asarlarini ijro etib, bu janr rivojiga albatta katta hissa qo'shgan.

Botir Umid kompozitorlikdan diplomga ega bo'lmasada, uning amaliy tajribasi yildan yilga o'sib, musiqaning har xil janrlarida ijod qilib, milliy musiqiy asarlar yaratdi.

Botir Umidjonovning ijodida xor uchun yozgan barcha asarlari katta ahamiyatga egadir. Kompozitor quyidagi akapella xor asarlarini yaratdi: "Ey sanam" (Xamza so'zi), "Go'zal" (M.Turobov so'zi), "Jangchi qabrida" (Mahbuba Rahim qizi so'zi), "Oltin vodiy" (X.Sharipov so'zi), "Tarixiy imzo" (B.Isroilov so'zi), "Ruboiy" (U.Xayyom so'zi), "Ruboiy" (Navoiy so'zi), "Ruboiy" (X.Dexlaviy so'zi) akapella (jo'rsiz) syuitalari: tojik xalq qo'shiqlari asosida "Dilbarume" syuitasi, to'rt qismli "Baxt nuri" (O.Daydarov, M.Ashurboyev, U.Mirzayev va J.Umarovlar so'zi) syuitasi, D.Zokirov bilan hamkorlikdagi "Asrim sadosi" (Oybek so'zi) kontatasi, tatar xalq qo'shiqlari asosida "Yashlar uyyuni" syuitasi, "O'ynang dildoralar" (H.Muhammad so'zi), "Tabriknoma" (Oybek so'zi), "Bayram g'azali" (H.G'ulim so'zi) kabi noyob asarlarni, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri jo'riligida xor poemasi. Botir Umidjonovning hozirgi kunda esda qoladigan qo'shiqlari ayni vaqtda o'quvchilar uchun murakkab hamdir. Chunki ular ohangdorligi bilan insonning ichki kechinmalarini, tuyg'ularini namoyon etadi. Botir Umidjonovning ijodi xalq



ijodiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Xormeyster badiiy jihatdan yuksak g‘oyaviy asarlarni yaratuvchi ijodkor sifatida ham hattoki folklor musiqasidan unumli tarzda foydalanib qo‘shiqlarni qayta ishlagan va xor uchun asarlarni moslashtirgan. Botir Umidjonovning ijodiyoti hozirgi zamon jahon ko‘p ovozli musiqa ijodiyoti tamoyillariga tayangan holda janrlar aro birikmani vujudga keltiradi. U folklor qo‘shiqlariga o‘zgartirish kiritmagan holda, badiiylashtirib uni xor uchun qayta ishlagan. Bulardan: “Ililla yor”, “O‘zganacha”, “Qora soch”, “Jon Andijon”, “Og‘a dorom”, “Xurshidi jahon galdi”, “Gal bari”, “Yor nimalar devdim sizga”, “Olmacha anoringga balli”; Ozarbayjon xalq qo‘shig‘idan ham bor “Chal o‘yna”; Uyg‘ur xalq qo‘shiqlaridan: “O‘ynamdu yaxshi”, “Kolxoz yoshlari”; Qozoq xalq qo‘shig‘i “Chimboy”, “Mungli qiz”, “Dad alingnen”; Tojik xalq qo‘shiqlaridan “Gar namedoni bidon”, “Diliman”; Qirg‘iz xalq qo‘shiqlaridan: “Qomuzchi”, “Qizil gul”, “Oy tobo” va boshqalar professional xor jamoalarning repertuaridan joy oldi.

Botir Umidjonov zamondosh va klassik shoirlarning she‘rlariga qo‘shiqlar va romanslar yaratgan, masalan ulardan; “Dilrabo” (A.Isroilov so‘zi), “Bilganmisiz” (O‘.Rashid so‘zi), “Sandadir ko‘zlarim” (Oybek so‘zi), “Sevgi” (Oybek so‘zi), “Jonon xiromon” (Aminzoda so‘zi), “Ayriliq o‘tida ” (Q.Maqsumov so‘zi), “Mo rui Samarqand” (M.Baxti so‘zi), “Yor o‘zing” (A.Po‘lat so‘zi), “Oromijon tun” (T.Rajabiy so‘zi), “Meni eslagin” (X.Saloh so‘zi), “Oshiq” (Jomiy so‘zi), “Soch oqligi-ko‘ngil oqligi” (Mirtemir so‘zi), “Hajir” (Nodira so‘zi), “Gul bargi” (H.Yahyo so‘zi), “Bahoriya” (M.Baxti so‘zi), “Eshitdim” (E.Samandar so‘zi), “Olisdagi erimga”(Z.Obidov so‘zi) va boshqalar.

Xormeyster Botir Umidjonov radio spektakllariga ham musia bastalaganlar. Ulardan: O‘.Umarbekov romani asosida “Jiyda gullaganda” va “Afrosiyob go‘zali” (M.Qoriyev qissasi va romani asosida), “Odam bo‘lish qiyin”, “O‘tgan kunlar” (A.Qodiriy romani asosida). 1990-yillarda Yu.Rajabiy nomidagi Jizzax viloyat teatri sahnasida “Zulmat yutgan ziyokor” (O‘.Rashid pyesasi), va Muqimiy nomidagi musiqiy teatr sahnasida “Oqibat” (R.Madiyev pyesasi) kabi musiqali dramalari vujudga keldi. Badiiy filmlardan biri “Shiddat” (rejissor Azarov) filmiga musiqa bastaladi. Botir Umidjonov kompozitorlik, dirijyorlik va jamoatchilik faoliyati bilan



zamonaviy o‘zbek musiqa ijodiyotiga katta hissa qo‘shganligi uchun “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvoni bilan taqdirlanganlar.

Botir Umidjonovning qayta ishlagan 3 ta asarlarni misol qilib olamiz. Bu asarlar Xorazm xalq qo‘shiqlari hisoblanadi. Ular: “Og‘o dorom”, “Gal bari”, “Xurshidi jahon galdi” kabi asarlar. Bu asarlar xalq orasida keng tarqalgan asarlar hisoblanadi albatta. Bu qo‘shiqlar kompozitor, xormeyster Botir Umidjonov tomonidan xor uchun qayta ishlangan asarlardan hisoblanadi. Bu asarlar O‘zbekiston radiolarida va televidiniyalarida mahoratli xor jamoalari tomonidan ijro etilgan. Keyinchalik ushbu xor uchun moslashtirilgan asarlarimiz respublika havaskorlik xor jamoalari va o‘quv yurtlari xorlarida ham ijro etilib kelinmoqda. Bu qo‘shiqlarda asosan sevgi, muhabbat mavzusi aks ettirilgan.

“Og‘o dorom”- Xorazm xalq lapari hisoblanadi. Bu asar uchta ko‘plet va naqoratdan iborat. Shaklan ham uch qismdan iborat. Asar o‘zining mazmundorligi va sho‘xchanligi bilan xarakterli asarlardan biridir.

“Gal bari” asari. Bu qo‘shiq 1657-1711-yillarda Boborahim Mashrab g‘azali asosida yozilgan asar. Qo‘shiq erkaklar va ayollar xorining dialogi asosida kuylanadi. Asosan tenor va soprano ovozlari kuylaydi. Fon sifatida alt va bas ovozlari turadi.

“Xurshidi jahon galdi” asari ojiza so‘zi va musiqasi asosida qayta ishlangan. Qo‘shiq yettita ko‘pletdan iborat. Bu asar uch qismdan iborat. Asar a kapella to‘rt ovozli aralash xor uchun yozilgan asar hisoblanadi.

Ustoz Botir Umidjonovning yaratgan asarlari xalq orasida keng tarqalganligi uchun ham uning asarlarini talabalar sevib tinglab kelishmoqda.

Albatta ustoz Botir Umidjonovning yaratgan asarlari xalqimizning madaniy va ma‘naviy boyligidir, uning yaratgan asarlari musiqiy merosimiz sifatida hozirgi kunga qadar ardoqlanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, T., 1997.
2. M.Yusupov “Xorazm maqomlari” Tom. -1
3. Gudkova E. A. “O‘zbek xor adabiyoti” Tosh.1974



4. Yusupov R.Yu. "O'zbek xalq musiqa ijodi" tavsiyalar T.2000 y.
5. Solomonova E. "O'zbek musiqa tarixi" T.1981 y
6. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. 4-jild. T., 2003.
7. Matyoqubov O "Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish". T. 1983.